

**Toshkent davlat yuridik universitetida xalqaro akademik mobillikni tashkil etish
to‘g‘risida
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrda
“O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari
to‘g‘risida”gi PF–232-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarining
akademik mobilligini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom va O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10- iyundagi 359-son qarori bilan tasdiqlangan Toshkent
davlat yuridik universitetida ta‘limning kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda -
TDYU) da ta‘lim olayotgan talabalarning xorijiy oliy ta‘lim muassasasida hamda xorijiy
talabalarning TDYUda xalqaro akademik mobillik asosida ta‘lim olish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. TDYUda ta‘lim olayotgan talabalar ikkinchi kursdan boshlab o‘qishning bir o‘quv
yiligacha bo‘lgan muddatda xorijiy oliy ta‘lim muassasasining yurisprudensiya yoki davlat va
jamiyat boshqaruvi yo‘nalishida akademik mobillik dasturlari doirasida o‘qish huquqiga ega.
Talabaning xorijiy oliy ta‘lim muassasasida o‘qigan davri va o‘zlashtirgan fanlari xorijiy oliy
ta‘lim muassasasi ma‘lumotnomasi asosida TDYU Kengashi tomonidan TDYU o‘quv rejasi va
dasturlarining tegishli qismlarini o‘zlashtirganligi sifatida qabul qilinishi va talabaga o‘qishini
tegishli o‘quv semestrndan davom ettirish huquqi berilishi mumkin.

2. Ushbu Nizomda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar:

xalqaro akademik mobillik - TDYU talabalarining muayyan vaqt mobaynida xorijiy
davlatdagi boshqa bir oliy ta‘lim muassasiga o‘qish maqsadida borishi hamda xorijiy davlatdagi
oliy ta‘lim muassasasidan TDYUga xorijiy talabalarni o‘qish maqsadida kelishi;

masofaviy akademik mobillik - talabalarning elektron ta‘lim platforma (digital.tsul.uz),
Moodle, Zoom, Microsoft Teams va boshqa onlayn platformalarda ta‘lim olishi;

qisqa muddatli akademik mobillik dasturi - talabalarning o‘qish muddati bir o‘quv
semestrndan ortiq bo‘lmagan muddatga davom etishi;

uzoq muddatli akademik mobillik dasturi - talabalarining o‘qish muddati bir o‘quv
semestrndan uzoq muddatga davom etishi.

3. Xorijiy talaba TDYU bilan u o‘qiyotgan xorijiy oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasida
tuzilgan kelishuv, memorandum va boshqa hujjatlarga muvofiq yoki o‘z xohishiga ko‘ra oliy
ta‘lim muassasasining yo‘llanma xatiga asosan xalqaro akademik mobillik dasturi asosida
TDYUda o‘qishi mumkin. Xorijiy talabaning o‘z xohishiga ko‘ra xalqaro akademik mobillik
asosida TDYUda o‘qishiga TDYU rektorining buyrug‘i bilan yo‘l qo‘yiladi.

4. Qoida tariqasida, xalqaro akademik mobillik dasturi bir o‘quv semestri yoki bir o‘quv
yiliga teng muddatda amalga oshiriladi. TDYU bilan xorijiy oliy talim muassasalari o‘rtasida
tuzilgan kelishuv, memorandum va boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan qo‘shma ta‘lim dasturlari

va qo'shma fakultetlarda o'qiyotganlar bilan bog'liq muddatlar va boshqa talablar mazkur Nizom bilan tartibga solinmaydi.

5. Mazkur Nizomda belgilangan muddatlarda murojaat qilmagan xorijiy oliy ta'lim muassasasiga xalqaro akademik mobillik dasturi asosida o'qishga ketish istagi bo'lgan TDYU talabasining murojaati ko'rmasdan qoldiriladi.

6. TDYU Kengashi tomonidan belgilangan GPA o'tish balli miqdori to'play olmagan va tahsil olayotgan kurs uchun kontrakt to'lovini amalga oshirmagan TDYU talabasi xorijiy oliy ta'lim muassasasiga xalqaro akademik mobillik dasturi asosida o'qishga ketishiga ruxsat berilmaydi.

7. TDYU talabasi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan tanlovlar natijasida g'olib bo'lgan taqdirda xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etayotgan bo'lsa, unda xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish uchun ushbu xalqaro tanlov talablari qo'llanilishi mumkin.

8. Xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etayotgan talabaning mazkur dastur doirasidagi o'qish muddatini uzaytirishiga hamda ushbu dastur yakunlangandan so'ng TDYUga qaytmasdan turib darhol boshqa xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish uchun ariza topshirishiga yo'l qo'yilmaydi.

2-bob. TDYU talabalarining xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etishlarini amalga oshirish va rasmiylashtirish tartibi.

9. Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan xalqaro akademik mobillik dasturi e'lon qilinganida mazkur dastur doirasida xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qish istagi bo'lgan talaba mazkur Nizomning 9-bandida korsatilgan hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan bevosita tegishliligi bo'yicha o'zi o'qib turgan fakultet dekanatiga yoki elektron tarzda elektron ta'lim platformasi orqali fakultet dekanatiga murojaat etishi mumkin.

10. Xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qish istagi bo'lgan talaba, qoida tariqasida, quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

qisqa yoki uzoq muddatli xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish to'g'risida tegishli fakultet dekanining rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan rektor nomiga yozilgan ariza (1, 2-illovalar);

xorijiy oliy ta'lim muassasasining xalqaro akademik mobillik dasturiga oid ta'lim dasturi va boshqa ma'lumotlar (o'qish davri, o'qitiladigan fanlar va ularga ajratilgan kreditlar, to'lov kontrakt miqdori va boshqa xarajatlarning qoplanish tartibi), agar mavjud bo'lsa;

talabaning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari, jamoat va boshqa ishlarda faolligi hamda shaxsiy yutuqlarining mavjudligini (diplom va sertifikatlar orqali aniqlanadi) tasdiqlaydigan hujjatlar;

xorijiy tilni bilish to'g'risida sertifikat (agar xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish uchun talab mavjud bo'lsa);

xorijga chiqish pasporti nusxasi;

xorijiy oliy ta'lim muassasasi talab qilgan hollarda tibbiy sug'urta sertifikati;

qabul qiluvchi tomonning maxsus talabalaridan kelib chiqqan holda boshqa hujjatlar.

Shu bilan birga, taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan har bir xalqaro akademik mobillik dasturi bo'yicha alohida e'lon qilinadi.

11. Xorijiy oliy ta'lim muassasasi tomonidan xalqaro akademik mobillik dasturi doirasida o'qish uchun taqdim etilgan joylar, ariza bilan murojaat etgan talabalardan ko'p bo'lganida, TDYUda ichki tanlov bo'lib o'tadi.

Tanlov quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

talabaning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari;

jamoat va boshqa ishlarda faolligi hamda shaxsiy yutuqlarining mavjudligi (diplom va sertifikatlar orqali aniqlanadi);

xorijiy tillarni bilish darajasi.

Bunda, ushbu mezonlar quyidagicha baholanadi:

a) talabaning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari uning to'plagan tegishli GPA ko'rsatkichi bo'yicha - GPAga mos ball;

b) jamoat va boshqa ishlarda faolligi hamda shaxsiy yutuqlarining mavjudligi:

xalqaro va respublika darajasidagi tanlov va tadbirlarda ishtirok etib I—III o'rinlarni egallagani uchun - 0,7 ball;

viloyat, shahar va tuman darajasidagi tanlov va tadbirlarda ishtirok etib, I—III o'rinlarni egallagani uchun - 0,6 ball;

universitet darajasida tanlov va tadbirlarda ishtirok etib I—III o'rinlarni egallagani uchun - 0,5 ball;

barcha darajadagi tanlov va tadbirlarda ishtirok etganligi uchun - 0,3 ball.

c) xorijiy tillarni bilish darajasi (xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish bo'yicha xorijiy til):

xorijiy tilni B2 darajada bilishi to'g'risidagi xalqaro va milliy sertifikat uchun - 3 ball;

xorijiy tilni C1 darajada bilishi to'g'risidagi xalqaro va milliy sertifikat uchun - 4 ball;

xorijiy tilni C2 darajada bilishi to'g'risidagi xalqaro va milliy sertifikat uchun - 5 ball.

Xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish bo'yicha xorijiy tildan tashqari boshqa xorijiy tilni bilishi to'g'risida tegishli xorijiy yoki milliy sertifikat taqdim etilganida ushbu sertifikat 2 ball bo'yicha baholanadi.

Tanlov natijalari talabaning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari (GPA), xorijiy tilni bilish darajasi uchun berilgan ball hamda jamoat va boshqa ishlardagi faolligi va shaxsiy yutuqlari uchun berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Umumiy ball GPA ko'rsatkichi + xorijiy til sertifikati uchun berilgan ball + jamoat faolligi va yutuqlar uchun berilgan ballar (sertifikatlar soni tegishli ballga ko'paytirilgan holda) formulasi asosida hisoblanadi.

12. TDYU fakultetlarining dekanatlari tegishli talabalar tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlarni 7 (yetti) ish kunida o'rganib chiqadi, tahlil qiladi hamda umumlashtirgan holda Xalqaro hamkorlik boshqarmasiga taqdim etadi. Bunda, Xalqaro hamkorlik boshqarmasiga xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish uchun barcha hujjatlari to'liq bo'lgan talabalar to'g'risida ma'lumotlarni va ularning hujjatlari taqdim etiladi.

Xalqaro hamkorlik boshqarmasi talabaning arizasi va taqdim qilingan hujjatlarga muvofiq tegishli xorijiy oliy ta'lim muassasasi bilan aloqa o'rnatgan holda talabani qabul qilish bo'yicha rozilik olinish choralarini ko'radi.

Xorijiy oliy ta'lim muassasasi roziligi olinganidan so'ng, tegishli ma'lumot fakultet dekanatiga va ta'lim platformasi orqali talabalarga yetkaziladi. Shu bilan birga, tegishli ma'lumot Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan TDYU rasmiy sahifasida ham e'lon qilinadi.

13. Fakultet dekanati tomonidan talabaning xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish uchun arizasi mezonlarga daxldor bo'lmagan asoslar bilan rad etilgan taqdirda, tegishli

fakultet dekanati tomonidan ushbu rad etish sabablari yuzasidan Xalqaro hamkorlik boshqarmasiga yozma tushuntirish taqdim etilishi lozim. Zarur hollarda mazkur masala universitet rahbariyati tomonidan tegishli prorektorlar bilan kelishilgan holda ko‘rib chiqiladi va yakuniy qaror qabul qilinadi.

14. Xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etadigan talabalar uchun tegishli fakultetning dekani tomonidan xorijiy oliy ta‘lim muassasasi va O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) bilan kelishilgan holda akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilanayotgan ta‘lim dasturlari loyihasi hamda kurs nomi va kreditlar soni ko‘rsatilgan Kelishuv loyihasi (3-ilova) tasdiqlanadi.

Bunda, xorijiy oliy ta‘lim muassasasi bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

15. Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarga asosan TDYU fakultetining dekani talabani xorijiy oliy ta‘lim muassasasida xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etishi yuzasidan buyruq loyihasini tayyorlaydi va imzolash uchun rektorga kiritadi.

16. Fakultet dekanati hamda Akademik mobillik dasturi bo‘yicha koordinator talabaga uning xorijiy oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga borishi bilan bog‘liq hujjatlarni taqdim etilishi va rasmiylashtirib berilishiga mas‘ul hisoblanadi.

17. Fakultet dekanati mas‘ul xodim talabani akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, jamoat va boshqa ishlarda faolligi hamda shaxsiy yutuqlarining mavjudligini (diplom va sertifikatlar orqali aniqlanadi) tasdiqlaydigan hujjatlarni tekshiradi:

Qog‘oz sifati va rangi;

Muhr va imzolarning aniq ekanligi;

Matnning chop etilish sifati;

Hologramma va himoya belgilarining mavjudligi;

Hujjat seriya va raqamining formati;

Berilgan sana va amal qilish muddati.

3-bob. Talabani to‘plagan kreditlarini tan olish va hisoblash tartibi

18. TDYU talabasi xorijiy oliy ta‘lim muassasasidagi xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha o‘qishining muddati tugaganidan so‘ng 2 (ikki) oylik muddat ichida TDYU devonxonasi orqali O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi)ga quyidagi hujjatlar taqdim etadi:

rektor nomiga yozilgan ariza (5-ilova);

ta‘lim dasturi (fanlar) katalogi;

o‘qigan fanlari va to‘plagan kreditlari haqida akademik ma‘lumotnoma/sertifikat.

19. O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) talabani xalqaro akademik mobillik dasturi davomida o‘zlashtirgan fanlari va to‘plagan kreditlarini 3 (uch) ish kuni ichida ko‘rib chiqadi va ularni tan olish bo‘yicha TDYU Kengashining navbatdagi majlisiga tegishli ma‘lumotlarni tayyorlab taqdim etadi.

TDYU Kengashi tomonidan talabani kreditlari tan olinganidan so‘ng fakultet dekanati talabani tegishli kursga o‘qishga qabul bo‘lish bo‘yicha rektor buyruq loyihasini tayyorlaydi va imzolash uchun rektorga kiritadi.

20. Xalqaro akademik mobillik dasturi doirasida o‘qish muddati yakunlangan xorijiy oliy ta’lim muassasasi talabasiga universitet bilan xorijiy oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida tuzilgan kelishuv, memorandum va boshqa hujjatda nazarda tutilgan hujjatlar fakultet dekanati tomonidan taqdim etiladi.

4-bob. TDYUda xorijiy talabalarning xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha ishtirok etish tartibi.

21. Xalqaro akademik mobillik dasturi doirasida xorijiy universitetlardan TDYUga tashrif buyuruvchi talabalardan hujjatlarni qabul qilish, ular bevosita shug‘ullanish va ularni muvofiqlashtirish vazifasi Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

22. TDYUda xorijiy talabalarning xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha ishtirok etishi uchun hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasi tomonidan tegishli e’lon beriladi.

Bunda, hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasi tomonidan quyidagi muddatlarda tegishli hujjatlar taqdim etilishi lozim:

kuzgi semestr va bir o‘quv yili davomida o‘qish uchun - 1-iyulga qadar;

bahorgi semestr uchun - 1-dekabrga qadar.

Ushbu muddatlar va TDYUda xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha ishtirok etishning boshqa talablari har bir xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasi e’tiboriga yetkaziladi hamda TDYU saytida ham e’lon qilinadi.

23. Xalqaro hamkorlik boshqarmasi 10 (o‘n) ish kun ichida xorijiy oliy ta’lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan barcha hujjatlarni o‘rganib chiqadi va tahlil qiladi hamda xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etishda munosib bo‘lgan talabalar to‘g‘risida ma’lumotlarni va ularning hujjatlarini umumlashtirgan holda, ularni TDYUda xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha o‘qishiga ruxsat berish masalasini ko‘rib chiqish uchun rektorga kiritadi.

Xalqaro hamkorlik boshqarmasi xorijiy oliy ta’lim muassasidan talabaning akademik qarzdorligi mavjud emasligi hamda agar talaba kontrakt to‘lovi asosida ta’lim olsa, o‘zining universitetiga o‘qish to‘lov summasini to‘laganligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib olishi mumkin.

Talaba barcha talablarga javob bergan taqdirda va xalqaro akademik mobillik dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha tavsiya berilganda Xalqaro hamkorlik boshqarmasi unga safar xizmatiga tayyorgarlik ko‘rishi to‘g‘risida xabar beradi hamda viza olishlarida texnik jihatdan ko‘maklashadi.

Shu bilan birga, xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etadigan xorijiy talabalarga o‘qish uchun tanlagan tegishli fakultet dekani tomonidan xorijiy oliy ta’lim muassasasi va O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) bilan kelishilgan xolda akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilanayotgan ta’lim elementlari loyihasi tasdiqlanadi.

24. Fakultet dekanatlari TDYUga xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan talabalarni kutib olish bilan bog‘liq quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

xorijlik talabalarni aeroportdan kutib olish;

xorijlik talabalarni Talabalar turar joyiga joylashtirish, hujjatlarni rasmiylashtirish;

xorijlik talabalarning TDYUda ta’lim olishlariga ko‘maklashish va boshqa masalalar.

25. Xalqaro akademik mobillik dasturini amalga oshirish va tashkillashtirish, shuningdek, xorijiy talabaning xalqaro akademik mobillik dasturi bo‘yicha TDYUda o‘qishga kelishi bilan

bog‘liq hujjatlarni taqdim etilishi va rasmiylashtirib berilishiga hamda talaba o‘qishini tashkillashtirib borilishiga tegishli fakultetlar dekanlari, Xalqaro hamkorlik boshqarmasi, O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) mas’ul hisoblanadi.

26. Xalqaro akademik mobillik dasturi yakunlangandan so‘ng TDYU O‘quv-uslubiy boshqarmasi (Registrator ofisi) tomonidan xorijiy oliy ta’lim muassasasidan kelgan talaba uchun uning o‘zlashtirgan fanlari va natijalari aks ettirilgan akademik transkript dastur tugagan kundan boshlab 2 (ikki) oy muddat ichida taqdim etiladi.

5-bob. Masofaviy xalqaro akademik mobillik dasturini amalga oshirish

27. TDYU Kengashi qarori bilan tasdiqlangan masofadan turib elektron ta’lim platformalar yordamida o‘qish uchun tavsiya etilgan fanlarning ro‘yxati mavjud bo‘lsa, xorijiy talabalarga fanlarni tanlab o‘qish orqali masofaviy xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etish huquqi beriladi.

Tasdiqlangan fanlarning ro‘yxati har semestr boshlanishida kamida ikki oy oldin TDYU veb- sahifasida e’lon qilib boriladi.

Talaba tomonidan yozilgan shaxsiy arizaga (4-ilova) hamda shaxsiy o‘quv rejasiga muvofiq TDYU rektorining talabani masofaviy xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etishi to‘g‘risidagi buyrug‘i qabul qilinadi.

TDYU rektorining buyrug‘i asosida tegishli fakultet dekani talabani masofaviy xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirokida akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilangan ta’lim elementlari bilan ta’minlash chorasini ko‘radi hamda talabalarga elektron ta’lim platformada masofaviy tarzda o‘qiydigan fanlarni belgilab beradi.

Talaba tavsiya etilgan fanlar ro‘yxatidan o‘zining joriy yil yoki rejalashtirilayotgan yildagi o‘quv rejasidagi fanlarni keltirib o‘tish huquqiga ega.

Tegishli fakultet dekanati elektron ta’lim platformasida masofaviy tarzda o‘qigan fanlari va natijalari aks etgan talabalar tomonidan taqdim etilgan sertifikatga asosan reestrga hamda talabalarining bazalariga kiritib o‘tadi.

28. Masofaviy akademik mobillik dasturida ishtirok etuvchi va shartnoma asosida o‘qiydigan talabalar masofaviy akademik mobillik dasturidan tashqari, TDYUning shartnomaviy to‘lovlarini ham to‘liq hajmda to‘lashi shart. Masofaviy akademik mobillik dasturida ishtirok etayotgan talabalarni rasmiylashtirishda ular bilan TDYUning o‘zi tuzgan asosiy shartnomasida hech qanday o‘zgartirishlar kiritilmaydi. Talabani masofaviy akademik mobillik dasturida ishtiroki bilan bog‘liq barcha xarajatlar talaba tomonidan mustaqil qoplanadi (TDYU va hamkor xorijiy oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida imzolangan shartnomalarda ko‘zda tutilgan hollar bundan mustasno).

29. Masofaviy akademik mobillik dasturi natijalarini hisoblash va tan olinishi uchun talaba o‘zining fakultet dekani nomiga o‘qigan fan (bir necha fanlar)ini o‘zining o‘quv dasturiga kiritish va/yoki to‘plangan kreditlar hamda olingan ballarni tan olish uchun ariza beradi (5-ilova). Arizaga sertifikat ilova qilinadi.

30. Masofaviy xalqaro akademik mobillik dasturi yakunlangandan so‘ng TDYU O‘quv-uslubiy boshqarmasi (Registrator ofisi) tomonidan xorijiy oliy ta’lim muassasasidan kelgan talaba uchun uning o‘zlashtirgan fanlari va natijalari aks ettirilgan akademik transkript dastur tugagan kundan boshlab 2 (ikki) oy muddat ichida taqdim etiladi.

6-bob. Xalqaro akademik mobillik dasturini amalga oshirish xarajatlari va ularni qoplash tartibi

31. Xalqaro akademik mobillik dasturi TDYU bilan xorijiy oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro kelishuv hujjatlariga muvofiq bepul yoki to'lov kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Viza olish, kelish-ketish va shaxsiy ehtiyojlari bilan bog'liq xarajatlar talaba tomonidan qoplanadi (xalqaro akademik mobillik dasturi to'g'risidagi kelishuvda boshqa hollar nazarda tutilgan bo'lsa bundan mustano).

TDYU xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etayotgan xorijiy talabalar uchun Talabalar turar joyida yoki boshqa joydan xalqaro akademik mobillik dasturi davri uchun ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yashash joyi bilan beg'araz ta'minlaydi.

32. TDYU talabasiga xalqaro akademik mobillik dasturida ishtirok etayotgan davrida stipendiya to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

33. Xalqaro akademik mobillik dasturi asosida TDYUda tahsil olayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasasi talabasiga stipendiya tayinlanmaydi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

34. TDYU talabalarining va xorijiy oliy ta'lim muassasalari talabalarining xalqaro akademik mobillik dasturiga oid ma'lumotlarni tizimli ravishda yuritish, monitoring va tahlil qilish fakultet dekanatlari va Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

35. TDYU rahbariyati topshirig'iga muvofiq talabalarning xalqaro akademik mobillik dasturiga oid ma'lumotlar TDYU Kengashi majlislarida muhokama etilishi mumkin.

Toshkent davlat yuridik universitetida xalqaro akademik mobillikni tashkil etish to'g'risidagi nizamiga 1-ilova

TDYU rektori _____ ga

(fakultet/kurs/guruh)

_____ **talabasi**
_____ **dan**

(F.I.Sh.)

ARIZA
(uzoq muddatli xalqaro akademik mobillik dasturi ishtirok etish to'g'risida)

Sizdan meni _____ dagi _____ ning
(davlat, shahar) (universitet, ta'lim muassasasi nomi)

_____ dan _____ gacha
(dastur nomi)

davom etadigan uzoq muddatli o'quv dasturida ishtirok etishimga amaliy yordam berishingizni so'rayman.

(Safar maqsadi)

(Safardan kutilgan natija)

Moliyalashtirish manbasi: _____
(o'z mablag'lari / grant / stipendiya / boshqa)

Dastur o'quv rejasi shartlarini bajarishni o'z zimmamga olaman. Dastur o'quv rejasi ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

(sana)

(imzo)

(F.I.Sh)

Dekan roziligi olindi:

(fakultet)

(imzo)

(F.I.Sh)

(sana)

Toshkent davlat yuridik universitetida xalqaro akademik mobillikni tashkil etish to'g'risidagi nizomiga 2-ilova

TDYU rektori _____ ga

(fakultet/kurs/guruh)
_____ **talabasi**
_____ **dan**
(F.I.Sh.)

ARIZA
(qisqa muddatli xalqaro akademik mobillik dasturi ishtirok etish to'g'risida)

Sizdan meni _____ dagi _____ ning
(davlat, shahar) (universitet, ta'lim muassasasi nomi)
_____ dan _____ gacha
(dastur nomi)

davom etadigan qisqa muddatli o'quv dasturida ishtirok etishimga amaliy yordam berishingizni so'rayman.

(Safar maqsadi)

(Safardan kutilgan natija)

Moliyalashtirish manbasi: _____
(o'z mablag'lari / grant / stipendiya / boshqa)

Mazkur dastur natijalarini umumiy reytingga kiritish imkoniyatini ko'rib chiqishingizni so'rayman.

(sana)

(imzo)

(F.I.Sh)

Dekan roziligi olindi:

(fakultet)

(imzo)

(F.I.Sh)

(sana)

ECTS - EUROPEAN CREDIT TRANSFER SYSTEM

AGREEMENT / KELISHUV

ACADEMIC YEAR / O'QUV YILI: 20___/ 20___, FIELD OF STUDY /

YO'NALISH: _____

Name of student / Talabani nomi:	E-mail / Elektron manzili:	Phone number/ Telefon:
Sending institution / Jo'natuvchi tomon:		Country / Davlat:

DETAILS OF THE PROPOSED STUDY PROGRAMME ABROAD / TAVSIYA ETILGAN O'QUV

DASTURINING TAVSIFI

Course unit code 1 Kurs kodi	Course unit title / Kursning rasmiy nomi	Number of ECTS credits 1 Kreditlar miqdori

According to the ECTS system a normal workload of one academic year is 60 ECTS. Normally students gather slightly less credits. Please note that this Agreement is preliminary and you may change it to some extent when you arrive to host university. Then you need to fill in changes to the previous Agreement form

ECTS tizimiga muvofiq, talabani yiliga o'quv yuki 60 ECTS kreditini tashkil etadi. Odatda talabalar biroz kamroq kredit olishadi. Iltimos, ushbu shartnoma dastlabki kelishuv ekanligini hamda talaba qabul qiluvchi universitetga kelgandan so'ng o'zgartirishi mumkinligini unutmang. Bunday holda, dastlabki kelishuv qo'shimcha shartnoma bilan to'ldirilishi kerak.

Student's signature / Talaba imzosi	Date / Sana
--	--------------------

SENDING INSTITUTION I Jo'natuvchi tomon	
We confirm that the agreement is accepted / Ushbu shartnoma haqiqiylikini tasdiqlaymiz.	
Departmental coordinator's signature I Fakultetdan dastur koordinatorining imzosi	Institutional coordinator's signature / Universitetdan dastur koordinatorining imzosi
Date / Sana:	Date / Sana:

RECEIVING INSTITUTION / Qabul qiluvchi tomon	
We confirm that the agreement is accepted / Ushbu shartnoma haqiqiylikini tasdiqlaymiz.	
Departmental coordinator's signature I Fakultetdan dastur koordinatorining imzosi	Institutional coordinator's signature / Universitetdan dastur koordinatorining imzosi
Date / Sana:	Date / Sana:

Toshkent davlat yuridik universitetida xalqaro akademik mobillikni tashkil etish to'g'risidagi nizamiga 4-ilova

TDYU rektori _____ ga

(fakultet/kurs/guruh)
_____ **talabasi**
_____ **dan**
(F.I.Sh.)

ARIZA
(masofaviy xalqaro akademik mobillik dasturi ishtirok etish to'g'risida)

Sizdan meni _____ dagi _____ ning
(davlat, shahar) (universitet, ta'lim muassasasi nomi)
_____ dan _____ gacha
(dastur nomi)

davom etadigan masofaviy o'quv dasturida ishtirok etishimga amaliy yordam berishingizni so'rayman.

(Safar maqsadi)

(Safardan kutilgan natija)

Moliyalashtirish manbasi: _____
(o'z mablag'lari / grant / stipendiya / boshqa)

Dastur o'quv rejasi shartlarini bajarishni o'z zimamga olaman. Dastur o'quv rejasi ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

(sana)

(imzo)

(F.I.Sh)

Dekan roziligi olindi:

(fakultet)

(imzo)

(F.I.Sh)

(sana)

Toshkent davlat yuridik universitetida xalqaro akademik mobillikni tashkil etish to'g'risidagi nizomiga 5-ilova

TDYU
rektori _____ ga

(fakultet/kurs/guruh)

talabasi
dan

(F.I.Sh.)

ARIZA

(xalqaro akademik mobillik doirasida to'plangan kreditlarni hisoblash va tan olish to'g'risida)

Sizdan taqdim etilgan hujjatlar asosida

_____ da

(universitet, ta'lim muassasasi nomi)

_____ dan _____ gacha bo'lgan muddatda qo'lga kiritilgan o'quv natijalarimni hisobga olishingizni so'rayman. (arizaga ilova qilinadi)

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra:

Taqdim etilgan hujjatlarga muvofiq fan(lar)ning nomi	Dars soati	Kreditlar	TDYU baholash tizimi bo'yicha ko'rsatgich	Qaror

Sana: " ____ " _____ 20 ____ yil

Talaba: _____ (_____)